



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
XALQARO NORDIK UNIVERSITETI**

**QODIROV JASURBEK SHAROFITDINOVICH**

---

**Davlat-xususiy sherikligi asosida faoliyat olib borayotgan tarmoqlarning investitsiya imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan ilg'or xorijiy tajribalar va ularni tatbiq etish yo'nalishlari**

Jahon tajribasida DXSh mexanizmlari uzoq muddatli moliyalashtirish va jamoat infratuzilmasini tashkil etish maqsadida xususiy kompaniyalarni jalb qilish uchun keng qo'llaniladi. DXSh loyihasi birinchi navbatda mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy holat va ustuvor yo'nalishlardan kelib chiqib amalga oshiriladi. Aksariyat iqtisodchi olimlar va amaliyotchi mutaxassislar jahonda DXSh tizimi rivojlanishini 3 ta bosqichga ajratib o'rganishni taklif etishadi. Ushbu tizim jahon iqtisodiy munosabatlarida nisbatan yangi soha bo'lganligi uchun ko'pchilik mamlakatlar tajribasi hali DXSh rivojlanishining birinchi bosqichi belgilariga to'g'ri keladi, ya'ni DXSh tizimining asoslari yaratilmoqda, standartlar ishlab chiqilmoqda va institutsional islohotlar amalga oshirilmoqda, jumladan, O'zbekiston Respublikasida ham ushbu tizim shakllanish bosqichida hisoblanadi.

DXSh rivojlanishi ikkinchi bosqichida faoliyat ko'rsatayotgan mamlakatlar qatoriga Yevropaning rivojlangan mamlakatlari – Germaniya, Fransiya, Ispaniya, Italiya, shuningdek, AQSh, Kanada, Yangi Zelandiya, Yaponiya va Rossiyani kiritish mumkin.

**Jahon tajribasida DXSh tizimining rivojlanish bosqichlari<sup>1</sup>**

<b>DXSh rivojlanish bosqichlari</b>	<b>Xususiyatlari</b>
Birinchi bosqich	<ul style="list-style-type: none"> <li>- DXSh siyosati asoslarini shakllantirish;</li> <li>- bazaviy tushunchalarni ishlab chiqish;</li> <li>- DXSh xizmatlari bozorini yaratish;</li> <li>- birinchi navbatdagi loyihalarni aniqlash.</li> </ul>
Ikkinchi bosqich	<ul style="list-style-type: none"> <li>- DXSh strukturalarini tashkil etish;</li> <li>- normativ-huquqiy bazani shakllantirish;</li> <li>- yangi sektorlar hisobiga DXSh loyihalari kengayishi;</li> <li>- amaliy qo‘llanmalar tayyorlash va e‘lon qilish.</li> </ul>
Uchinchi bosqich	<ul style="list-style-type: none"> <li>- DXSh modellari shakllanishi;</li> <li>- huquqiy va tashkiliy to‘siqlar bartaraf etilishi;</li> <li>- DXSh loyihalari oqimi vujudga kelishi;</li> <li>- investorlar doirasi kengayishi, jumladan, sug‘urta va pensiya fondlari, xususiy fondlar va subyektlar.</li> </ul>


Uchinchi bosqich mamlakatlari esa Buyuk Britaniya, Avstraliya, Janubiy Koreya va Irlandiya hisoblanadi. DXSh tizimining ilg‘or rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, shu kungacha faqatgina davlatning vakolati sanalgan sohalarda ham DXSh loyihalarini amalga oshirishga ruxsat berilmoqda.

DXSh tizimi jahon tajribasini o‘rganishda Buyuk Britaniyaga to‘xtalmasdan iloji yo‘q. Chunki, Buyuk Britaniya DXSh tizimining kelib chiqish vatani va bugungi kunda eng rivojlangan nuqtasi deb hisoblash mumkin. “Davlat – xususiy sheriklik” tushunchasi ham birinchi bo‘lib Buyuk Britaniyada amaliyotga kiritilgan<sup>2</sup>.

Buyuk Britaniyada DXSh tizimi rivojlanlangan darajasini “katta yettilik” davlatlari bilan taqqoslab tahlil qilinganda sezilarli farqlar mavjudligini guvohi bo‘lamiz. Xususan, “katta yettilik” davlatlarida DXSh sohasida amalga oshirilgan investitsiya loyihalarining 72,7 foizi Buyuk Britaniya hissasiga to‘g‘ri keladi (6-rasm).

<sup>1</sup>Агазарян Н.В. «Анализ мирового опыта применения механизма государственно-частного партнерства»//Государственно-частное партнерство. 2016. Т. 3. № 2. С. 151-172.

<sup>2</sup> Marty F., Voisin A., Trosa S. Les partenariats public-privé. - Paris: Éditions La Découverte, 2006. URL: <http://www.oecd.org/dataoecd/32/9/41768196.pdf>.



Z


### 5-rasm. Jahon mamlakatlarida DXSh rivojlanish egri chizig‘i<sup>3</sup>

Buyuk Britaniyada jamoat va ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalarga xususiy mablag‘larni jalb qilish g‘oyasi 1980 yillarda vujudga kelgan bo‘lib, shu bilan birga, DXSh tizimi faol rivojlanishining boshlanishida 1992 yilda “Xususiy moliyaviy tashabbus” (Private Finance Initiative) dasturi joriy qilinishi muhim ahamiyat kasb etgan. Britaniya hukumati mazkur dastur asosida budjetga ortiqcha yukni kamaytirish maqsadida iqtisodiyotda infratuzilma tarmoqlarini rivojlantirish uchun DXSh ko‘rinishida davlat va xususiy biznesning yaqin hamkorligi amaliyotini faol qo‘llab keladi.

“Xususiy moliyaviy tashabbus” (Private Finance Initiative) dasturida DXSh mexanizmining afzalligi sifatida ko‘rsatiladiki, xususiy sektor davlatga nisbatan ayrim vazifalarni yaxshiroq uddalaydi va quyidagilar orqali samaradorlikka erishiladi:

<sup>3</sup> Internet manbalari materiallari asosida muallif tomonidan tuzildi.

- risklar va vazifalarni oqilona taqsimlash;
- loyihaning butun hayot sikli tamoyili qo‘llanishi;
- rag‘batlantirishni optimallashtirish va muvozanatlangan manfaatdorlik.



**6-rasm. “Katta yettilik” davlatlarida amalga oshirilgan DXSh loyihalari<sup>4</sup>**

Buyuk Britaniyada DXSh mexanizmi deyarli barcha holatlarda xususiy moliyaviy tashabbus shaklida amalga oshiriladi. U Britaniya hukumati, iqtisodchi olimlari va mutaxassislarning uzoq yillik izlanishlari natijasi hisoblanadi. “Xususiy moliyaviy tashabbus” dasturining o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

loyihalar davlat uchun yangi aktivlar yaratish maqsadida emas, balki ularni amalga oshirish orqali aholi turmush darajasini oshirish maqsadini ko‘zda tutadi;

xususiy sektor aktivlarni yaratish va ularga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha muayyan uzoq muddatli majburiyatlarni o‘z zimmasiga olsa, davlat esa uzoq muddatli davrda mazkur xizmatlarga bo‘lgan talabni ta‘minlash majburiyatlarini zimmasiga oladi.

Shuningdek, ushbu dasturda risklarning salmoqli qismi xususiy sektor zimmasiga tushadi. DXSh loyihagini amalga oshirish bo‘yicha qarorlar qabul

<sup>4</sup> Агазарян Н.В. «Анализ мирового опыта применения механизма государственно-частного партнерства»//Государственно-частное партнерство. 2016. Т. 3. № 2. С. 151-172.

qilishda narx va sifat nisbatini baholash (value for money) eng asosiy mezon sifatida tan olinadi.

Buyuk Britaniya nafaqat DXSh loyihalari ko‘lami bo‘yicha, shuningdek, iqtisodiyot tarmoqlarida ushbu investitsion sxemalarni diversifikatsiya qilish bo‘yicha ham yetakchi davlat hisoblanadi. Hozirgi sharoitda Britaniya biznesi DXSh doirasidagi loyihalarni amalga oshirish, jumladan, moliyaviy, huquqiy va loyihalarni boshqarish jihatlari bo‘yicha har tomonlama va ko‘p yillik tajribaga ega.

O‘z navbatida, Buyuk Britaniya bilan birgalikda AQShning ham DXSh tizimidagi o‘ziga xos tajribasini ko‘rib chiqish va tatbiq etish imkoniyatlarini baholash maqsadga muvofiq. AQSh tajribasining o‘ziga xosligi shundaki, mamlakatda DXSh bo‘yicha yagona standartlarni belgilovchi federal qonun mavjud emas. Balki har bir shtatda shtatning imkoniyatlari va maqsadlaridan kelib chiqib, alohida normativ-huquqiy hujjatlar bazalari qabul qilingan.

AQShda DXSh tizimidagi munosabatlarni tartibga soluvchi va muvofiqlashtiruvchi asosiy institut 2005 yilda tashkil etilgan Davlat-xususiy sheriklik bo‘yicha Milliy kengash (The National Council for Public-Private Partnerships, NCPPP) hisoblanadi. Milliy kengash notijorat tashkiloti bo‘lib, uning asosiy missiyasi iqtisodiyotning barcha tarmoq va jabhalarida DXSh tizimini tashviqot va targ‘ibot qilish, shuningdek, ijtimoiy ahamiyatga molik xarajatlarni samarali boshqarish asosida iqtisodiyotning davlat va xususiy sektorlari manfaatli hamkorligi uchun bazis yaratish bo‘lib hisoblanadi<sup>5</sup>.

Shuningdek, Davlat-xususiy sheriklik bo‘yicha Milliy kengash quyidagi asosiy vazifalarni amalga oshiradi:

- DXSh loyihalarini amalga oshirish bo‘yicha davlat va xususiy biznes o‘rtasida axborotlar almashinuvini ta‘minlaydi;
- DXSh bo‘yicha trening va seminarlar tashkil etadi;
- DXSh instrumentlarini qo‘llashni ommalashtirish uchun umumiy ma‘lumotlar tayyorlaydi va tahlil qilib boradi;

---

<sup>5</sup> <http://ncppp.org> –AQSh Davlat-xususiy sheriklik bo‘yicha Milliy kengashi veb-sayti ma‘lumotlari asosida bayon qilindi.

- DXSh loyihalari, jumladan, xalqaro loyihalarni tayyorlash va amalga oshirish jarayonini uslubiy jihatdan qo‘llab-quvvatlaydi.


Rivojlangan mamlakatlar tajribasini tahlil qilish natijalari shundan dalolat bermoqdaki, qaysi mamlakatlarda bozor munosabatlari kuchli taraqqiy etgan, aholi jon boshiga YaIM va mehnat unumdorligi darajalari yuqori, o‘rtacha umr ko‘rish yoshi uzoq, ta‘lim va tibbiyot xizmatlari sifati yuqori bo‘lsa, ushbu mamlakatlarda DXSh mexanizmi asosan ta‘lim va sog‘liqni saqlash sohalaridagi loyihalarda keng qo‘llaniladi. Rivojlanayotgan davlatlarda esa DXSh mexanizmi ushbu ijtimoiy loyihalar bilan birgalikda infratuzilmaviy loyihalar – yo‘l, transport singari sohalar ham yetakchi o‘rinda turadi.

Ta‘kidlash mumkinki, rivojlanayotgan yoki o‘tish iqtisodiyotiga ega mamlakatlarda ijtimoiy soha obyektlariga nisbatan iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantiruvchi sohalar hisoblangan infratuzilmaviy loyihalar, xususan, transport infratuzilmasini rivojlantirishga ko‘proq e‘tibor qaratiladi. Birgina, Rossiya misolida DXSh sohasida amalga oshirilayotgan investitsiyaviy loyihalarni ko‘radigan bo‘lsak, mamlakatda transport infratuzilmasini barpo etish va modernizatsiya qilish sohasidagi loyihalarga ustuvorlik berilmoqda. Chunki, Rossiya Federatsiyasining aksariyat hududlarida transport tizimi rivojlanishida nomutanosibliklar mavjud bo‘lib, sifatli transport infratuzilmasi xizmatlariga yuqori darajada talab saqlanib qolmoqda.

O‘zbekiston singari birinchi bosqichdagi MDH, Lotin Amerikasi, Sharqiy Yevropa mamlakatlari DXSh sohasida boshqa davlatlarda yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni o‘rganib chiqib, ularni milliy tajribada takrorlamaslik choralarini ko‘rishi va ilg‘or mamlakatlarda shakllangan tajribalarni qo‘llash imkoniyatlaridan foydalanishi lozim. Xususan, Avstraliya va Irlandiyada – yo‘l qurilishi, Buyuk Britaniyada – shifoxonalar, ta‘lim maskanlari, harbiy infratuzilma obyektlari qurish, Niderlandiyada – munisipal darajadagi uy-joy qurish sohalarida shakllangan tajriba namunalari ajralib turadi.

Globalashuv jarayonlarining chuqurlashuvi natijasi o‘laroq, DXSh jahonning turli mamlakatlarida o‘xshash xususiyatlar va darajalar bilan rivojlanmoqda. Ushbu

tizimning barqaror va tez sur'atlar bilan rivojlanishi uchun mamlakatda bozor iqtisodiyoti qanchalik takomillashgani, davlat va xususiy sektor o'rtasida muvozanatlashgan manfaatdorlik va ishonchning hosil bo'lganligi ahamiyatga egadir. Shu bilan birga, mamlakatlar o'rtasida DXSh rivojlanishi xususiyatlari o'xshash bo'lishiga qaramasdan, turli mamlakatlarda farqli jihatlari ajratib ko'rsatiladi. Xususan, anglo-sakson mamlakatlarida xususiy sherikni tanlashda uchta turlicha konkurslar o'tkaziladi: qurilishga, loyihalashtirishga va boshqarishga. Fransiya kabi davlatlarda esa aksincha barcha turdagi xizmatlar uchun yagona konkurs o'tkaziladi. Umuman olganda, rivojlangan qator Yevropa mamlakatlari tajribasi shundan dalolat beradiki, DXSh mexanizmi davlat va xususiy sektor o'rtasida bir-birini to'ldiruvchi manfaatdorlik mavjud bo'lganda muvaffaqiyatli amalga oshiriladi.



**7-rasm. Jahonda DXSh loyihalari amalga oshirilayotgan iqtisodiyot tarmoqlari<sup>6</sup>**

Rossiyalik iqtisodchi olim S.A.Balashov xorijiy mamlakatlarda DXSh loyihalarini tahlil qilib, shunday xulosaga kelganki, turli davlatlarda DXSh loyihalarini amalga oshirishning o'ziga xos ustuvorlikka ega tarmoqlari mavjud: masalan, AQShda – avtoyo'llar (jami loyihalarning 89 foizi), Buyuk Britaniyada –

<sup>6</sup> Агазарян Н.В. «Анализ мирового опыта применения механизма государственно-частного партнерства»//Государственно-частное партнерство. 2016. Т. 3. № 2. С. 151-172.

sogʻliqni saqlash (35 foiz) va taʼlim (32 foiz), Germaniyada – taʼlim (43 foiz), Italiya, Fransiya va Kanada kabi davlatlarda esa – sogʻliqni saqlash tarmoqlari ustuvorlik qiladi<sup>7</sup>.

BMTning tasnifiga muvofiq turli mamlakatlarda DXSh loyihalari amalga oshirilishi tahlillari shuni koʻrsatadiki, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganligidan kelib chiqib, DXSh boʻyicha umumiy holat ham oʻzgarib boradi. 7-rasmda dunyo boʻyicha DXSh loyihalarining iqtisodiyot tarmoqlari kesimida tahlilini koʻrishimiz mumkin.

Soʻnggi yillarda muayyan davlatlarda DXShning shunday loyihalari ham amalga oshirilmoqdaki, bugungi kungacha ular faqatgina davlatning vakolat doirasiga kirgan edi. Xususan, AQSh, Buyuk Britaniya va Germaniyada DXShning zamonaviy sxemalari vujudga kelmoqda. Bunda, davlatning strategik rejalarida umum milliy loyihalarni, jumladan, harbiy, kosmik loyihalarini amalga oshirishda xususiy biznesning ham ishtiroki va manfaatdorligini taʼminlashni nazarda tutiladi. Jahon iqtisodiyotining zamonaviy taraqqiyot davrida har bir davlat uchun DXShni qoʻllashning nisbatan samarali tarmoqlarini belgilab olinishi maqsadga muvofiq. Investitsiyalarni birdaniga iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga jalb qilish amaliy jihatdan imkonsiz, shuning uchun, birinchi navbatda investitsiyalar yoʻnaltiriladigan tarmoqlar belgilab olinishi lozim.

Shuningdek, iqtisodiy rivojlanish darajasi turlicha boʻlgan mamlakatlarda xususiy sektorning mablagʻlari hisobiga investitsiyalar jalb qilish imkoniyatlari va xususiyatlari ham turlichadir. Rivojlanayotgan davlatlarda DXSh mexanizmi orqali investitsiya loyihalari amalga oshirilayotgan tarmoqlar asosan transport tarmogʻi (avtoyoʻl, temir yoʻllari, aeroport), ijtimoiy soha (taʼlim, sogʻliqni saqlash, koʻngilochar va turizm maskanlari), uy-joy kommunal xoʻjaligi (elektr, suv, gaz taʼminoti, suvni tozalash), shuningdek, ayrim hollarda boshqa sohalar (mudofaa infratuzilmasi, qamoqxonalar) hissasiga toʻgʻri keladi. Bunda, eng asosiy yetakchi oʻrinda transport va ijtimoiy tarmoqlarida infratuzilmaviy loyihalar turadi.

---

<sup>7</sup> Балашов С. «Опыт функционирования ГЧП в развитых странах//Государственно-частное партнерство в условиях кризиса»: Сборник материалов конференции. – Москва, 2009. – С. 281.



### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Агазян Н.В. «Анализ мирового опыта применения механизма государственно-частного партнерства»//Государственно-частное партнерство. 2016. Т. 3. № 2. С. 151-172.
2. Marty F., Voisin A., Trosa S. Les partenariats public-privé. - Paris: Éditions La Découverte, 2006. URL: <http://www.oecd.org/dataoecd/32/9/41768196.pdf>.
3. Агазян Н.В. «Анализ мирового опыта применения механизма государственно-частного партнерства»//Государственно-частное партнерство. 2016. Т. 3. № 2. С. 151-172.
4. Балашов С. «Опыт функционирования ГЧП в развитых странах»//Государственно-частное партнерство в условиях кризиса»: Сборник материалов конференции. – Москва, 2009. – С. 281.